



O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq frazeologizmlarning semantik va pragmatik tahlili

Yunusaliyeva Nozimaxon Zuxriddin qizi –

Farg'ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti nemis tili yo'nalishi talabasi

E-mail: nozimaxon57@gmail.com | ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9208-5708>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillaridagi bayram bilan bog'liq frazeologizmlar semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi ikki tilda mavjud bo'lgan bayramga oid frazeologik birliklarning ma'no, qo'llanish sohasi va madaniy mazmunini aniqlashdir. Tadqiqotda qiyosiy, kontekstual va semantik tahlil metodlari qo'llanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi frazeologizmlar jamoaviylik, marosimiy qadriyatlar va diniy an'anolarni aks ettiradi, nemis tilidagi frazeologizmlar esa shaxsiy his-tuyg'ular va individual kayfiyatni ifodalaydi. Xulosa sifatida, madaniyatlararo tafovutlar frazeologizmlarning pragmatik qo'llanilishida muhim rol o'ynashi ta'kidlandi. Ushbu natijalar til o'rganishda madaniy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, bayram, semantika, pragmatika, o'zbek tili, nemis tili, madaniyat, an'ana, milliy qadriyat, tilshunoslik.

Семантический и прагматический анализ фразеологизмов, связанных с праздниками, в узбекском и немецком языках

Аннотация. В статье проведён семантический и прагматический анализ фразеологизмов, связанных с праздниками, в узбекском и немецком языках. Цель исследования определить смысловые и культурные особенности употребления праздничных фразеологизмов в двух языках. В работе использованы сравнительный, контекстуальный и семантический методы анализа. Полученные результаты показывают, что узбекские фразеологизмы отражают коллективный дух,

традиции и религиозные обряды, тогда как немецкие индивидуальные эмоции и личное восприятие праздников. В заключение подчеркивается, что культурные различия играют важную роль в прагматическом использовании фразеологизмов. Результаты исследования могут быть полезны в развитии межкультурной компетенции при изучении иностранных языков.

Ключевые слова: *фразеологизм, праздник, семантика, прагматика, узбекский язык, немецкий язык, культура, традиции, ценности, лингвистика.*

Semantic and pragmatic analysis of holiday-related phraseological units in uzbek and german languages

Annotation. *This article analyzes the semantic and pragmatic aspects of phraseological units related to holidays in Uzbek and German languages. The aim of the study is to identify the semantic meaning, usage patterns, and cultural nuances of festive phraseology in both languages. Comparative, contextual, and semantic analysis methods were applied. The findings show that Uzbek phraseological units tend to express communal spirit, ceremonial traditions, and religious values, whereas German ones reflect individual emotions and personal attitudes toward celebrations. It is concluded that cultural differences play a significant role in the pragmatic use of phraseological expressions. The results contribute to the development of intercultural competence and deeper understanding of linguistic diversity.*

Keywords: *phraseology, holiday, semantics, pragmatics, Uzbek language, German language, culture, tradition, values, linguistics.*

KIRISH

Har bir xalqning tili – bu uning tarixiy taraqqiyoti, milliy tafakkuri, urf-odatlari, an'analari va ma'naviy qadriyatlarining o'ziga xos in'ikosidir[6]. Tilda xalqning ruhiy olami, dunyoqarashi hamda ijtimoiy hayot tarzi mujassam bo'ladi. Shu bois tilshunoslik fanida frazeologik birliklar xalq madaniyati, tarixiy tafakkuri va milliy o'ziga xosligini o'rganishda eng muhim manbalardan biri sifatida qaraladi[1]. Frazeologizmlar til tizimining eng ifodali, obrazli va milliy ruhga boy qatlamini tashkil etadi. Ular ma'no jihatidan ixcham bo'lishiga qaramay, xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlari haqida chuqur ma'lumot beradi.

Frazeologizmlar xalq tafakkurining, hayotiy tajribasining va hissiy dunyosining yorqin ifodasidir. Ular orqali insonlarning hayotga, mehnatga, muhabbatga, tabiatga, hamda jamiyatdagi o'zaro munosabatlarga bo'lgan qarashlari ifodalanadi. Ayniqsa, bayram bilan bog'liq frazeologizmlar xalqning ijtimoiy ongida quvonch, totuvlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik va milliy birdamlik g'oyalarini mujassam etadi. Bayramlar har bir xalq madaniyatida faqatgina marosim yoki dam olish kuni emas, balki ijtimoiy birlik, tarixiy xotira va ma'naviy yangilanish ramzidir. Shu sababli, bayramga oid iboralarni tahlil qilish xalqning ruhiy dunyosi va madaniyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

O'zbek va nemis xalqlari qadimiy tarixga, o'ziga xos urf-odat va marosimlarga ega bo'lgan xalqlardir. Har ikkala xalqda ham bayramlar ijtimoiy hayotning muhim qismi hisoblanadi: ular oilaviy iliqlikni, mehr-oqibatni va jamiyatdagi o'zaro hurmatni mustahkamlaydi. Bu holat tilda ham o'z aksini topadi. Masalan, o'zbek tilidagi "bayramdek kayfiyatda bo'lish", "bayramona shukuh bilan", "bayramona ruhda yashash" kabi frazeologizmlar jamoaviylik, samimiyat va iliqlikni aks ettiradi. Nemis tilida esa "Feierlaune haben" ("bayram kayfiyatida bo'lish"), "frohe Festtage wunschen" ("bayram bilan samimiy

tabriklash”), “zum Fest gratulieren” (“bayram bilan tabrik aytmoq”) kabi iboralar shaxsiy quvonch, xursandlik va samimiy tilak bildirishga urg'u beradi.

Frazeologizmlarning mazmuni nafaqat ularning so'zma-so'z ma'nosida, balki ularni ishlatishdagi pragmatik jihatlarida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni, frazeologik birliklar nutqda qanday maqsadda, qanday vaziyatda va qanday hissiy ohangda qo'llanilishi ham madaniy tafakkur bilan bog'liq. O'zbek xalqida bayram bilan bog'liq iboralar ko'pincha jamoaviy quvonch, mehr va duolarni ifodalasa, nemis xalqida bu kabi iboralar asosan shaxsiy his-tuyg'ularni bildiradi, rasmiy yoki yozma muloqotda tez-tez qo'llaniladi.

Shunday qilib, mazkur maqolada o'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq frazeologik birliklarning semantik (ma'no tizimi) va pragmatik (nutqdagi qo'llanish va maqsad) jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ikki xalq tilidagi bayram obrazining lingvistik ifodasini qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda bu birliklar orqali madaniy tafakkurdagi o'ziga xosliklarni yoritishdan iboratdir. Ushbu tahlil frazeologiyaning madaniyatlararo o'rganilishiga, tarjima jarayonlarida ekvivalentlikni aniqlashga hamda xorijiy til o'qitish metodikasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeologik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. So'nggi yillarda bu borada nafaqat alohida tillar doirasida, balki qiyosiy-tipologik va madaniyatlararo tahlil asosida ham keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Frazeologizmlar tildagi milliy ruh, xalq tafakkuri, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarining ifodachisi sifatida baholanadi. Shu bois ularni tahlil qilish faqat lingvistik emas, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va kommunikativ pragmatika bilan ham uzviy bog'liqdir.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rgangan olimlar orasida S.Karimov, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev kabi tadqiqotchilarni alohida ta'kidlash mumkin[1,6,8]. Ularning ilmiy ishlari o'zbek frazeologiyasining semantik tizimi, obrazlilik darajasi, xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi va nutq madaniyatidagi o'rni masalalariga bag'ishlangan. Mazkur manbalarda frazeologik birliklar tildagi milliy-madaniy tafakkurni shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri sifatida talqin etilgan. Xususan, E.Begmatov frazeologizmlarning leksik-semantik tizimdagi o'rni va ularning barqarorlik darajasini, S.Karimov esa ularning xalqona fikrlash va madaniyat kodlari bilan bog'liqligini ilmiy asosda tahlil qilgan.

G'arb tilshunosligi an'analarida ham frazeologik birliklarning semantik-pragmatik o'rganilishi keng yoritilgan. H.Burger, A.Kunin, D.Dobrovol'skiy, N.Naciscione kabi olimlar frazeologizmlarni mustaqil tizim sifatida tadqiq etib, ularning kommunikativ, kognitiv va madaniy funksiyalarini tahlil qilganlar[2,3,7]. Xususan, Burger o'z tadqiqotlarida nemis tili frazeologizmlarining madaniyat bilan uzviy aloqasini asoslab bergan, Kunin esa frazeologizmlarning semantik strukturasini, ularning idiomatik barqarorligini va tildagi intertekstual aloqalarini chuqur tahlil etgan[2]. Dobrovol'skiy esa frazeologizmlarning pragmatik konnotatsiyasi, ularning ijtimoiy kontekstda qanday semantik siljishlarga uchrashi masalalariga e'tibor qaratgan[3].

Mazkur nazariy manbalar ushbu tadqiqot uchun muhim ilmiy poydevor vazifasini bajaradi. Ular o'zbek va nemis tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, frazeologizmlarni madaniy kodlar, milliy tafakkur va ijtimoiy ong bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tipologik yondashuv, semantik tahlil va pragmatik tahlil usullari qo'llanildi.

Qiyosiy-tipologik yondashuv orqali o'zbek va nemis tillaridagi bayram, marosim va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq frazeologik birliklarning umumiyliklari va farqli jihatlari aniqlanib, ularning semantik o'xshashliklari tizimlashtirishga erishildi. Semantik tahlil yordamida frazeologizmlarning ichki ma'no qatlamlari, obrazlilik darajasi, metaforik asoslari hamda konnotativ (qo'shimcha) ma'nolari aniqlandi. Pragmatik tahlil esa frazeologizmlarning nutqdagi kommunikativ vazifasini, ularning ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday hissiy va stilistik yuklama kasb etishini ochib berdi. Shuningdek, tadqiqot materiali sifatida quyidagi manbalardan foydalanildi: O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbek tilining frazeologik lug'ati, xalq maqollari to'plamlari, badiiy adabiyot namunalaridan olingan frazeologizmlar.

Nemis tili manbalaridan, Duden Redewendungen, Phraseologisches Wörterbuch der deutschen Sprache, DWDS (Digitales Wörterbuch der deutschen Sprache), Redensarten-Index kabi elektron bazalaridan foydalanishga erishildi.

Har bir frazeologik birlik shakl, ma'no va qo'llanilish konteksti jihatidan tahlil qilindi. Ularning semantik tarkibi, madaniy mazmuni, va kommunikativ funksiyalari qiyosiy jadval asosida tizimlashtirildi. Shu tarzda o'zbek va nemis tillaridagi frazeologizmlar o'rtasidagi madaniy, semantik va pragmatik o'xshashliklar hamda farqlar aniqlanib, ular tildagi milliy-madaniy tafakkurning ifodasi sifatida baholandi.

Mazkur metodologik yondashuv nafaqat frazeologik birliklarning semantik tuzilishini o'rganish, balki ularni xalq tafakkuri va madaniy kontekstda talqin etish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va xorijiy til o'qitish metodikasini takomillashtirishda ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis tillaridagi bayram mavzusiga oid frazeologik birliklar asosan ijobiy semantik yo'nalishga ega bo'lib, ular inson hayotidagi quvonch, birlik, tinchlik va ezgulik kabi tushunchalarni ifodalashda faol qo'llaniladi. Frazeologizmlar tildagi estetik va madaniy qadriyatlarining muhim tashuvchisi sifatida har ikki millatning mentaliteti, an'analari va ijtimoiy hayot tarzini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi frazeologizmlarda bayram xalqning jamoaviy quvonchi, totuvlik va baraka ramzi sifatida talqin etiladi. Bunday birliklarda ijtimoiy birdamlik, mehr-oqibat, va marosimiy madaniyatning qadimiy ildizlari yaqqol seziladi. Masalan: bayramdek kayfiyatda bo'lish, bayramona ruhda, bayramona shukuh bilan. Bu birikmalar nafaqat quvonchni, balki o'zaro hurmat, oilaviy birlik va ijtimoiy uyg'unlikni ham ifodalaydi. O'zbek xalqining "ko'pchilik bilan bayram" qilish an'anasi frazeologizmlarda kollektivlik, hamjihatlik va marosimiy qadriyatlarga urg'u berish orqali o'z aksini topgan. Shu bois, o'zbek tili frazeologiyasida "bayram" tushunchasi ko'proq ijtimoiy-madaniy birlik va ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Nemis tilidagi bayramga oid frazeologik birliklarda esa shaxsiy quvonch, samimiy tilak va individual baxt motivlari ustuvorlik qiladi. Quyidagi misollar bunga yaqqol dalildir: Feierlaune haben - "bayram kayfiyatida bo'lish", frohe Festtage wünschen - "bayram bilan tabriklash", das Fest im kleinen Kreis feiern - "bayramni tor doirada nishonlash".

Nemis frazeologiyasida bayram tushunchasi ko'proq tinchlik, xotirjamlik va shaxsiy baxt bilan bog'lanadi. Bunday birliklarda milliy mentalitetga xos bo'lgan individuallik, tartib-intizom va samimiylik jihatlari ifodalangan. Shu tariqa, nemis frazeologizmlarida "bayram" tushunchasi shaxsiy his-tuyg'ular, o'zini qadrlash va ichki tinchlik bilan uyg'unlashadi.

Qiyosiy tahlil natijalari har ikki tildagi frazeologizmlar madaniyatga xos tafakkur va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. O'zbek tilida "bayram"-

ijtimoiy birdamlik, mehr-oqibat, baraka va totuvlik ramzi, nemis tilida esa “bayram” – shaxsiy quvonch, osoyishtalik va samimiy munosabat belgisi sifatida talqin etiladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, o'zbek tilidagi bayramga oid frazeologizmlar odatda marosimiy kontekstda, jamoaviy yig'inlar, tabriklar yoki xalqona nutq shakllarida qo'llanadi. Nemis tilida esa bu birliklar ko'proq og'zaki muloqot, rasmiy tabriklar yoki shaxsiy suhbatlarda ishlatiladi. Shu bois, ularning kommunikativ vazifasi ham farq qiladi: o'zbek tilida ular ijtimoiy aloqalarni mustahkamlasa, nemis tilida insonlar o'rtasidagi samimiyligni bildiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar tildagi madaniy ongning shakllantiruvchi asosiy komponentlardan biridir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarini ifoda etish orqali milliy tafakkurning lingvistik ko'rinishini yaratadi. O'zbek va nemis tillaridagi bayramga oid frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish esa turli madaniyatlarda “quvonch” tushunchasining qanday talqin etilishini ochib berish, madaniyatlararo kommunikatsiyani chuqurroq anglash va tarjima jarayonlarida pragmatik muvofiqlikni ta'minlash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq frazeologik birliklar semantik jihatdan o'xshash bo'lib, ular asosan quvonch, totuvlik, ezgulik va tinchlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, ularning pragmatik qo'llanilishida milliy-madaniy tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi. Bu tafovutlar har bir xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy hayot tarzi va mentaliteti bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek frazeologiyasida “bayram” tushunchasi ko'proq jamoaviylik, birdamlik va marosimiy birlik timsolida ifodalanadi. “Bayramdek kayfiyatda bo'lish”, “bayramona shukuh bilan” kabi iboralar xalqning ruhiy olami, iliqlik, mehmondo'stlik va totuvlikka asoslangan qadriyatlarini yoritadi. Bunday frazeologizmlar o'zbek xalqining sotsial-madaniy dunyoqarashini ifodalaydi va til orqali milliy birlashuvni mustahkamlaydi.

Nemis tilidagi frazeologizmlar esa ko'proq shaxsiy quvonch, osoyishtalik va samimiy munosabatni ifodalashga yo'naltirilgan. “Feierlaune haben”, “frohe Festtage wunschen” kabi iboralar insonning ichki hissiyotini, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan iliq munosabatini bildiradi. Bu, o'z navbatida, nemis madaniyatida shaxs erkinligi, individual his-tuyg'ular va o'zini ifoda etish qadriyatlariga berilgan e'tibor bilan uyg'unlashadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda bayram frazeologizmlari milliy tafakkurning lingvistik ifodasi sifatida xizmat qiladi. Ular madaniyatning til tizimidagi aksini, xalqning ijtimoiy xotirasi va qadriyatlar tizimini namoyon etadi. Shu bois, frazeologizmlar nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi va kommunikativ pragmatika sohalari uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqot jarayonlarida til vositalarining semantik-pragmatik funksiyalarini chuqurroq tushunishga, shuningdek, tarjima amaliyotida ekvivalentlikni ta'minlash va xorijiy til o'qitishda milliy-madaniy komponentni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish, bayram bilan bog'liq frazeologizmlarning tarixiy ildizlari, metaforik modeli va lingvokulturologik talqinini o'rganish orqali o'zbek va nemis xalqlarining tildagi madaniy o'xshashliklari hamda farqlarini yanada chuqurroq ochish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E.Begmatov O'zbek tilining frazeologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, –2002.
2. H.Burger Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, –2010.
3. D.Dobrovol'skij, E.Piirainen Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, –2009.
4. S.Karimov Frazeologik lug'at – T.: O'qituvchi, –2010.
5. S.Karimov Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari. – T.: Fan, –2015.
6. A.V.Kunin, Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. – M.: Vysshaya shkola, –1996.
7. M.Mirtojiyev Zamonaviy o'zbek tilining frazeologik tizimi. – T.: Universitet nashriyoti, –2018.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, –2016.
9. A.Sharipov Til va madaniyat munosabati: lingvokulturologik yondashuv. – T.: Fan, –2021.
10. B.X.Xo'jayev. Pedagogik aksiologiya. – T.: Fan va texnologiya, –2012.